

# "HANSА BILAN АJOYIB TAASSUROTLAR" AKSIYASINI

## O'TKAZISH QOIDALARI

(keyingi o'rinlarda Qoidalar deb ataladi)

### 1. ATAMALAR VA TA'RIFLAR

- 1.1. **Aksiya** – "HANSА BILAN АJOYIB TAASSUROTLAR" rag'batlantiruvchi tadbir (keyingi o'rinlarda Aksiya deb ataladi) bo'lib, u Hansa savdo markasi Mahsulotlarining reklama kampaniyasi doirasida o'tkaziladi va Mahsulotga e'tiborni jalb qilish, unga qiziqishni shakllantirish yoki saqlab qolish va uni bozorga chiqarishga qaratilgan.
- 1.2. **Tashkilotchi** - "Vibe Agency" mas'uliyati cheklangan jamiyati, manzil: Qozog'iston Respublikasi, Almati shahri, Buxar jirau bulvari 26/1, "Evolution" biznes markazi, BIN 231140002554.
- 1.3. **Operator** - "NGROUP CA" mas'uliyati cheklangan jamiyati, manzil: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, To'rtariq ko'chasi, 3-5-uy, STIR 308522490.
- 1.4. **Buyurtmachi** – "Hansa Markaziy Osiyo" mas'uliyati cheklangan jamiyati, Qozog'iston Respublikasi, Almati shahri, Bo'stondiq tumani, Abish Kekilbayuli ko'chasi, 34-uy, BIN 210640000599.
- 1.5. **Aksiya veb-sayti (Veb-sayt)** – [www.hansapromo.uz](http://www.hansapromo.uz) domen nomiga ega manzilda joylashgan Internetdagi veb-sayt.
- 1.6. **Mahsulot** – bu Qoidalarning 4.1.1-bandida ko'rsatilgan davrda O'zbekiston Respublikasi hududidagi do'konlarda Hansa savdo belgisi bilan sotiladigan mahsulotlarning muntazam assortimenti.
- 1.7. **Ishtirokchi** – ushbu Qoidalarning 3-bo'limida belgilangan talablarga javob beradigan, Qoidalarning 6-bandida belgilangan harakatlarni bajarish orqali Aksiyada qatnashadigan jismoniy shaxs.
- 1.8. **G'olib** – ushbu Qoidalarda belgilangan tartibga muvofiq sovrinlardan birini yutib olgan Ishtirokchi.
- 1.9. **Chek** – Qoidalarning 4.1.1-bandida ko'rsatilgan davrda mahsulotni sotib olishni tasdiqlovchi Buyurtmachi hamkorlarining do'koni tomonidan berilgan kassa cheki.

### 2. ASOSIY QOIDALAR

- 2.1. Aksiya Mahsulotlarning reklama kampaniyasi doirasida amalga oshiriladi va Mahsulotga e'tiborni jalb qilish, unga qiziqishni shakllantirish yoki saqlab qolish va uni bozorda ilgari surishga qaratilgan.
- 2.2. Aksiyada Hansa savdo markasining hamma mahsulotlari ishtirok etadi.
- 2.3. Aksiya lotereya emas, unda ishtirok etish uchun Ishtirokchilardan to'lov talab qilinmaydi va tavakkalchilikka asoslangan emas. Ishtirok etish uchun to'lov olinmaydi. Aksiyaning butun Sovrin jang'armasi Buyurtmachi hisobidan shakllantiriladi.
- 2.4. Aksiya ushbu Qoidalarda belgilangan tartib va shartlarga muvofiq amalga oshiriladi.
- 2.5. O'tkazilayotgan Aksiya to'g'risidagi ma'lumotlar, shu jumladan Aksiya Qoidalari Aksiya Veb-saytida joylashtiriladi.
- 2.6. Aksiya O'zbekiston Respublikasi hududida o'tkaziladi.

### 3. ISHTIROKCHILARGA QO'YILADIGAN TALABLAR

- 3.1. Aksiyada ishtirok etish paytida 18 (o'n sakkiz) yoshga to'lgan va O'zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va O'zbekiston Respublikasida yashash uchun ruxsatnomasi bo'lgan norezidentlar Aksiya ishtirokchisi bo'lishi mumkin.
- 3.2. Qoidalarning 6.1-bandida belgilangan harakatlarni amalga oshirish Ishtirokchining quyidagilar bilan to'liq roziligini anglatadi:
  - Aksiya ishtirok etishga;
  - ushbu Qoidalarga;
  - Aksiya doirasida, shuningdek Aksiya tugaganidan keyin Tashkilotchi va Buyurtmachining boshqa aksiyalari va tadbirlari doirasida Tashkilotchi, Operator va Buyurtmachidan axborot xabarlarini (SMS-xabarlar, elektron pochta, messengerlar, chatbotlar va boshqalar orqali) olishga.

3.3. Aksiyada ishtirok eta olmaydi va ishtirok etmaydi: Tashkilotchi, Operator, Buyurtmachi bilan har qanday asosda va har qanday shaklda bog'langan shaxslar, shuningdek savdo tarmoqlarining xodimlari, shu jumladan, ularning yaqin qarindoshlari (turmush o'rtog'i, ota-onasi, qizi, o'g'li, farzandlikka oluvchilar, farzandlikka olinganlar, tug'ishgan va o'gay aka-ukalar va opa-singillar, bobo-buvilar, nevaralar), O'zbekiston Respublikasining norezidentlari va ushbu moddaning 3.1-bandida ko'rsatilmagan boshqa shaxslar.

#### 4. AKSIYA O'TKAZISH MUDDATLARI

- 4.1. Aksiyaning umumiy muddati: 2024-yil 15-dekabr dan 2025-yil 28-fevralgacha Belgilangan muddat quyidagilarni o'z ichiga oladi:
- 4.2. Mahsulotni sotib olish va [https://t.me/hansa\\_promo\\_uz\\_bot](https://t.me/hansa_promo_uz_bot) Telegram chat-botida ro'yxatdan o'tish davri - 2024-yil 15-dekabr (Toshkent vaqti bilan) soat 00:00:00 dan 2025-yil 15-fevral (Toshkent vaqti bilan) soat 23:59:59 gacha.
- 4.3. Sovrinlarni topshirish Aksiyaning umumiy muddati davomida 2025-yil 20-fevraldan 2025-yil 28-fevralgacha amalga oshiriladi.
- 4.4. Supersovrindan foydalanish muddati: 2025-yil 1-martdan 2025-yil 30-maygacha;
- 4.5. G'oliblarni Tashkilotchi 2025-yil 15-fevraldan 2025-yil 20-fevralgacha (Toshkent vaqti bilan) soat 18:00 gacha belgilaydi.

#### SOVRIN JAMG'ARMASI

4.6. Aksiya sovrin jamg'armasi sovrinlar va supersovrindan (keyingi o'rinlarda Sovrin deb ataladi) iborat.

##### 4.7. Aksiya sovrinlari

No	Sovrin nomi	O'zbek so'mida 1 dona nominal qiymati	O'ynaladigan sovrinlarning umumiy soni
1	15 Pro 128GB smartfoni	19 655 300	1
2	AirMax quloqchinlari	11 138 000	1
3	AirPods 3 quloqchinlari	3 574 500	1
4	Yandeks Stantsiya Layt	1 000 000	1

4.7.1. Ushbu moddaning 5.2-bandida ko'rsatilgan sovrinlarning nominal qiymati taxminiy hisoblanadi. Sovrinning haqiqiy qiymati sovrinni qabul qilish va topshirish dalolatnomasida qayd etiladi.

4.8. **Aksiyaning supersovrini: "Vyetnamga ikki kishilik sayohat"** (keyingi o'rinlarda Supersovrin deb ataladi)

4.8.1. Supersovrin quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ikki kishilik iqtisodiy sinfda parvoz;
- aeroport-mehmonxona, mehmonxona-aeroport transferi;
- nonushta asosida 5\* toifali mehmonxonaning ikki kishilik xonasida yashash;
- sayohat sug'urtasi.

4.8.2. Supersovrindan foydalanish muddati: 2025-yil 1-fevraldan 2025-yil 30-maygacha;

4.8.3. Supersovrinning umumiy qiymati **32 000 000 (o'ttiz ikki million)** o'zbek so'migacha summani tashkil qiladi.

4.9. **Bir ishtirokchi Aksiya davomida faqat 1 (bir) Sovrin yutib olishi mumkin.**

4.10. Tashkilotchi, Operator va Buyurtmachi G'olibning Tashkilotchi, Operator va Buyurtmachiga bog'liq bo'lmagan har qanday sabablarga ko'ra sovrinni ola olmasligi uchun javobgar emas.

4.11. Agar Sovrin ushbu moddaning 5.5-bandida ko'rsatilgan sababga ko'ra olinmasa, uni G'olib qayta talab qila olmaydi. Bunday Sovrinlarni olmaslik to'g'risidagi da'volar ko'rib chiqilmaydi.

4.12. Tashkilotchi, Operator va Buyurtmachi G'olib olgan Sovrindan keyingi foydalanish uchun javobgar emas.

4.13. Aksiya doirasida tarqatiladigan reklama materiallarida ko'rsatilgan (ko'rsatilishi mumkin

bo'lgan) Sovrinlarning ko'rinishi/shakli/tasviri va ulardan foydalanish taassurotlari haqiqiydan farq qilishi va Ishtirokchilarning kutganlariga to'liq javob bermasligi mumkin.

4.14. Aksiya g'oliblari tomonidan olingan Sovrinlar almashilmaydi va qaytarilmaydi.

4.15. Sovrinlar o'rniga ularning naqd puldagi ekvivalenti berilmaydi.

4.16. O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga muvofiq, ya'ni 2007-yil 25-dekabrda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 364, 377, 381, 386-moddalariga muvofiq Sovrinlar Soliq agentida soliq solinadigan daromadlarga (jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i - JShODS) kiradi. Ushbu turdagi daromad (yutuq) bo'yicha JShODS-ni hisoblash, ushlab qolish va to'lash soliq agenti, ya'ni Aksiya G'olibiga Sovrinni to'g'ridan-to'g'ri berishni ta'minlaydigan Operator tomonidan amalga oshiriladi.

## 5. AKSIYADA ISHTIROK ETISH TARTIBI

5.1. Aksiya ishtirokchisi bo'lish va sovrinlarni olish uchun ushbu Qoidalarning 3-bo'limi talablariga javob beradigan shaxs quyidagi xatti-harakatlar majmuini bajarishi kerak:

5.1.1. Qoidalarning 6.1.2-bandida ko'rsatilgan savdo hamkorlaridan O'zbekiston Respublikasi hududida Hansa savdo markasi mahsulotini sotib olish va mahsulot sotib olinganligini tasdiqlovchi fiskal chekni olish;

5.1.2. Aksiyada ishtirok etish uchun vakolatli hamkorlar ro'yxati:

- O'zbekistondagi CA Store do'konlari, shu jumladan <https://castore.uz/> internet-do'koni

CA.store (TTZ) Ahmad Yugnakiy ko'chasi, 3/5

CA.store (Zarqaynar) Zarqaynar ko'chasi, 12B

CA.store (Qo'yliq) Farg'ona yo'li ko'chasi, 790

CA.store (Sergeli) Sergeli tumani, Yangi Sergeli ko'chasi, 7

CA.store (Namangan) Namangan shahri, Hamroh ko'chasi, 3B

CA.store (Chilonzor) Qatortol ko'chasi, 3A

CA.store (Yunusobod) Yunusobod-19, Katta halqa yo'li, 21

CA.store (Oloy) Amir Temur ko'chasi, 3

CA.store (Kadishev), Yashnobod tumani, Aviasozlar 3-tor ko'chasi, 50

CA.store (Maxtumquli) Maxtumquli ko'chasi, 111/1

CA.store (Novza) Bunyodkor shoh ko'chasi, 15/1

CA.store (FSM) Shota Rustaveli ko'chasi, 53

CA.store (Shastri) Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 57

- O'zbekistondagi Texnomart Store do'konlari, shu jumladan <https://texnomart.uz/> internet-do'koni

TOSHKENT		
1	Texnomart Mirobod	Avliyo Ota ko'chasi, 4 (mo'ljal: Mirobod bozori)
2	Texnomart Yunusobod	Amir Temur ko'chasi, 7B (mo'ljal: Yunusobod bozori)
3	Texnomart Yunusobod 2	Yangi Shahar ko'chasi, 16A (mo'ljal: Grand Hall tantanalar zali, Mega Planetga yetmasdan)
4	Texnomart Farxod	Farxod ko'chasi, 1, 2-blok (mo'ljal: Farxod savdo majmuasi)
5	Texnomart Kadishev	Beshariq ko'chasi, 7 va 8 (mo'ljal: Kadishev bozori)
6	Texnomart Chilonzor	Chilonzor ko'chasi, 45/2 (mo'ljal: Chilonzor savdo markazi)
7	Texnomart Parkent	Parkent ko'chasi, 74, 13 blok (mo'ljal: Parkent bozori)
8	Texnomart Chirchiq	Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, A. Navoiy ko'chasi 135
9	Texnomart Chirchiq 2	Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 135
10	Texnomart GUM	Chorsu maydoni, 3A (mo'ljal: Toshkent savdo markazi, sobiq GUM)
11	Texnomart Compass	Katta Halqa yo'li, 17 (mo'ljal: Compass ko'ngilochar savdo markazi)
12	Texnomart ORZU	Katta Halqa yo'li (General Uzoqov), 2A (mo'ljal: Orzu chorrahasi)
13	Texnomart Sergeli	Sergeli tumani, Lutfkor ko'chasi, (Sergeli Korzinka)
14	Texnomart Sergeli-5	Toshkent shahri, Sergeli-5, Tursunzoda ko'chasi, 14, Golden Life ko'ngilochar savdo markazi Mo'ljal: Sirg'ali-3 metro bekati)

15	Texnomart Keles	Keles, Keles yo'li ko'chasi, 4
16	Texnomart Integro	Toshkent shahri, Bunyodkor shox ko'chasi, 52D
17	Texnomart Yangiyo'l	Yangiyo'l shahri, Samarqand ko'chasi, 169
VODIY		
18	Texnomart Farg'ona	Farg'ona shahri, Temur S. ko'chasi, 45 (Mo'ljal: "Sobiq Nurxon" kinoteatri)
19	Texnomart Namangan	Namangan shahri, A. Navoiy ko'chasi, 67 (Temir yo'l vokzali)
20	Texnomart Andijon	Andijon shahri, Cho'lpon shoh ko'chasi, 10 (O'zbekim savdo markazi)
21	Texnomart Bog'dod	Farg'ona viloyati, Bog'dod tumani, Mustaqillik ko'chasi, 7 (mo'ljal: Furqat vokzali)
22	Texnomart Andijon	Andijon shahri, 5-kichik daha, 6
23	Texnomart Andijon Navruz Mall	Andijon shahri, Mashrab ko'chasi, 64
24	Texnomart Uchko'prik	Farg'ona viloyati, Uchko'prik tumani, Navro'z shoh ko'chasi, 28 (dehqon bozori)
26	Texnomart Toshloq	Farg'ona viloyati, Toshloq tumani, Toshloq MFY, Alisher Navoiy ko'chasi, 94
28	Texnomart Asaka	Asaka shahri, Umid ko'chasi, 56
29	Texnomart Qo'qon	Farg'ona viloyati, Qo'qon tumani, Furqat ko'chasi (Go'zal univermagi)
VOHA		
30	Texnomart Samarqand	Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 53 (mo'ljal: Grand Kumush restorani)
31	Texnomart Buxoro	Buxoro shahri, Ibn Sino ko'chasi, 6 Mo'ljal: Fayzobod masjidi
32	Texnomart Nukus	Nukus shahri, Allayar Dosnazarov ko'chasi, 8
33	Texnomart Qarshi 2	Qarshi shahri, Islom Karimov ko'chasi, 184
34	Texnomart Termiz	Termiz shahri, Imom at-Termiziy ko'chasi, 28
35	Texnomart Urganch	Urganch shahri, Yangi Shovot yo'li ko'chasi, 3
36	Texnomart Samarqand 2	Samarqand shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 134

5.1.3. [https://t.me/hansa\\_promo\\_uz\\_bot](https://t.me/hansa_promo_uz_bot) Telegram chat-botida Qoidalarning 4.1.1-bandida ko'rsatilgan davrda ro'yxatdan o'tish;

5.1.4. Ushbu Aksiya Qoidalarini va shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish bo'yicha foydalanuvchi shartnomasini qabul qilish;

5.1.5. "Aksiyada ishtirok etish" tugmasini bosish orqali Aksiyada ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tish;

5.1.6. Yosh va fuqarolikni tasdiqlash;

5.1.7. Chekni suratga olish;

5.1.8. "Chekni ro'yxatdan o'tkazish" funksiyasidan foydalanib, chekning fotosuratini yuklash orqali [https://t.me/hansa\\_promo\\_uz\\_bot](https://t.me/hansa_promo_uz_bot) Telegram chat-botida ro'yxatdan o'tish;

5.1.9. Har bir Ishtirokchi ushbu Qoidalar shartlariga javob beradigan istalgan miqdordagi cheklarni ro'yxatdan o'tkazish huquqiga ega.

5.1.10. Chek va fotosuratga qo'yiladigan talablar:

- Fotosuratda fiskal chek bo'lishi kerak;
- Chek yaxshi bosilgan bo'lishi kerak;
- Chek to'liq ko'rinadigan bo'lishi kerak;
- Fotosurat aniq va kontrastli bo'lishi kerak; -

Aniq bo'lmagan, qorong'i fotosuratlar qabul qilinmaydi;

5.1.11. Ballar quyidagi ekvivalentda beriladi: 1 ball = 1 so'm/1000 – 1000-ga bo'lingan so'mlar soni. Masalan, 1000000 (bir million) so'm = 1000 (ming ball).

5.1.12. Ballar faqat Hansa savdo markasi mahsulotlari uchun beriladi.

5.1.13. Agar chekda boshqa ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlari bo'lsa, ballar faqat Hansa savdo markasi mahsulotlari uchun beriladi.

5.1.14. -band qoidalarini hisobga olgan holda Ishtirokchi tomonidan to'langan summaning ekvivalenti bo'lgan ballar soni hisobga olinadi.

5.1.15. Agar mahsulot chegirma bilan sotib olingan bo'lsa, ishtirokchiga chegirmani hisobga olgan holda haqiqatda to'langan summaning ekvivalentiga teng ballar beriladi.

5.2. Cheklarni yuklashdan tashqari, Ishtirokchi haftalik viktorina savollariga javob berish orqali

ballarni to'plash imkoniyatiga ega.

5.2.1. 2024-yil 20-dekabr dan boshlab har hafta Ishtirokchilar uchun viktorina savoliga javob berishlari mumkin.

5.2.1. Viktorina savoliga berilgan har bir to'g'ri javob uchun Ishtirokchi chat-botda ko'rsatiladigan 100 (yuz) ball to'plashi mumkin.

5.2.2. Agar Ishtirokchi savolga noto'g'ri javob bergan bo'lsa, ballar berilmaydi. Shu bilan birga, ballar chegirib ham tashlanmaydi.

5.3 Aksiya Ishtirokchisi maksimal ball to'plashi kerak.

5.4 Ishtirokchi Sovrinlarni topshirish muddati tugagunicha sotib olingan Mahsulotning fiskal chekini saqlab turishi shart, chunki Sovrinlarni olish uchun Tashkilotchi/Operator yoki Buyurtmachi chekning fotosuratlari/skanlarini so'rashga haqlidir. Chekning asl nusxasining skanerlangan nusxasi/fotosurati taqdim etilmagan taqdirda Tashkilotchi/Operator Buyurtmachi bilan kelishgan holda Sovrinni berish va Ishtirokchini g'olib deb topish masalasini hal qiladi.

## 6 G'OLIBLARNI ANIQLASH TARTIBI

7.1. Aksiya g'oliblarini aniqlash uchun Tashkilotchi cheklarni yuklab olish va haftalik viktorinalarda ishtirok etish uchun olingan ballar to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan Ishtirokchilar ro'yxatini tuzadi.

7.2. Eng ko'p ball to'plagan 5 (besh) sovrindor Ishtirokchi Aksiya g'oliblari bo'lib topiladi:

7.2.1. Supersovrinni qo'lga kiritish huquqiga ega bo'lgan 1-o'rinni egallagan G'olib sifatida Aksiya sovrindorlari orasida eng ko'p ball to'plagan Ishtirokchi aniqlanadi;

7.2.2. Sovrinlarni olish huquqiga ega bo'lgan G'oliblar sifatida Aksiya sovrindorlari orasida (to'plagan ballar soni bo'yicha) eng ko'p ball to'plagan Ishtirokchilar aniqlanadi:

O'rin	O'ynaladigan sovrin
2-o'rin	15 Pro smartfoni
3-o'rin	AirPods Max quloqchinlari
4-o'rin	Air Pods 3 quloqchinlari
5-o'rin	Yandex Stantsiya Layt

7.3. Agar ishtirokchilar aksiya sovrindorlari tomonidan bir xil miqdordagi ball to'plasa, aksiya g'olibi birinchi bo'lib ball to'plagan ishtirokchi bo'ladi, bu chat-bot ma'lumotlari bilan tasdiqlanadi.

7.4. G'oliblarni Tashkilotchi 2025-yil 15-fevraldan 2025-yil 20-fevralgacha (Toshkent vaqti bilan) soat 18:00 gacha belgilaydi.

## 8 SOVG'ALAR VA SOVRINLARNI TOPSHIRISH

8.1. Tashkilotchi G'oliblarni aniqlagandan so'ng ularning aloqa ma'lumotlarini darhol Operatorga ularni xabardor qilish uchun uzatadi. G'oliblardan 8.2-8.3-bandlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarni olgandan va ularni tekshirgandan so'ng, Tashkilotchi Operatorga G'oliblarga Sovrinlar berish to'g'risida ko'rsatma beradi. Operatorning vazifalari ushbu Qoidalarga muvofiq Tashkilotchi tomonidan ko'rsatilgan G'oliblarga sovrinlar berish bilan cheklanadi.

8.2. Sovrinlarni olish huquqiga ega bo'lgan G'oliblar Operator tomonidan Aksiyada ishtirok etish uchun ko'rsatilgan uyali telefon raqamiga qo'ng'iroq qilish yoki Telegramga yuboriladigan xabar orqali xabardor qilinadi. Sovrindor bo'lgan Aksiya Ishtirokchisi qo'ng'iroq yoki xabar olingan kundan boshlab 2 (ikki) ish kuni ichida Tashkilotchining [corporate@vibe-agency.kz](mailto:corporate@vibe-agency.kz) elektron pochta manziliga quyidagi ishonchli hujjatlarni / o'zi haqidagi ma'lumotlarni yuborishi kerak:

- Familiyasi, ismi, otasining ismi;
- Sovrinni yetkazib berish uchun turar joyning pochta manzili;
- o'zining O'zbekiston fuqarosi pasportining sahifalari fotosurati/skani;
- Operatorning so'rovi bo'yicha boshqa kerakli ma'lumotlar.

8.2.1. Qoidalarning 8.1-bandida ko'rsatilgan G'olibdan olingan ma'lumotlarni ijobiy tekshirgandan va Qoidalarning 3-bo'limiga rioya qilingandan so'ng, Tashkilotchi Ishtirokchiga G'olib maqomini tasdiqlovchi hujjatni, Sovrinni qabul qilish va topshirish dalolatnomasi shaklini tanishish uchun yuboradi.

8.2.2. G'olib Sovrinni qabul qilish va topshirish dalolatnomasini imzolash majburiyatini oladi.

Sovrinni qabul qilish va topshirish dalolatnomasining skaner nusxasi Tashkilotchining [corporate@vibe-agency.kz](mailto:corporate@vibe-agency.kz) va Operatorning [darya.dinikeeva@n11.uz](mailto:darya.dinikeeva@n11.uz) elektron pochta manzili yuboriladi.

8.2.3. Agar G'olib Tashkilotchi va Operatorga imzolangan dalolatnoma taqdim etmasa, Ishtirokchiga Sovrin berilmaydi va bunday Ishtirokchi tegishli Sovrinni olishdan bosh tortgan deb hisoblanadi.

8.2.4. Sovrinlar Operator tomonidan kuryerlik xizmati orqali Operator hisobidan G'olib bergan yetkazib berish manziliga yuboriladi.

8.3. **Supersovrin egasi bo'lgan G'olib bilan** Operator tegishli sayohat sanalarini belgilash uchun ko'rsatilgan uyali telefon raqami orqali bog'lanadi. Supersovrin yutib olgan Ishtirokchi qo'ng'iroq yoki xabar olingan kundan boshlab 2 (ikki) ish kuni ichida Tashkilotchining [corporate@vibe-agency.kz](mailto:corporate@vibe-agency.kz) elektron pochta manziliga quyidagi ishonchli hujjatlarni / o'zi haqidagi ma'lumotlarni yuborishi kerak:

- Familiyasi, ismi, otasining ismi;
- safardagi sherikning familiyasi, ismi, otasining ismi;
- turar joyning pochta manzili;
- aloqa telefon raqami;
- o'zining O'zbekiston fuqarosi pasportining sahifalari fotosurati/skani (fotosurat tasvirlangan va oxirgi ro'yxatdan o'tish joyi haqida ma'lumot ko'rsatilgan sahifasi);
- sherikning O'zbekiston fuqarosi pasportining sahifalari fotosurati/skani (fotosurat tasvirlangan va oxirgi ro'yxatdan o'tish joyi haqida ma'lumot ko'rsatilgan sahifasi);
- Operatorning so'rovi bo'yicha boshqa kerakli ma'lumotlar.

8.3.1. Qoidalarning 8.2-bandida ko'rsatilgan G'olibdan olingan ma'lumotlarni ijobiy tekshirgandan va Qoidalarning 3-bo'limiga rioya qilingandan so'ng, Tashkilotchi Ishtirokchiga G'olib maqomini tasdiqlovchi hujjatni, Sovrinni qabul qilish va topshirish dalolatnomasi shaklini tanishish uchun yuboradi.

8.3.2. G'olib Sovrinni qabul qilish va topshirish dalolatnomasini imzolash majburiyatini oladi. Bosh sovrinni qabul qilish va topshirish dalolatnomasining skaner nusxasi Tashkilotchining [corporate@vibe-agency.kz](mailto:corporate@vibe-agency.kz) va Operatorning [darya.dinikeeva@n11.uz](mailto:darya.dinikeeva@n11.uz) elektron pochta manzili yuboriladi.

8.3.3. Agar G'olib Tashkilotchi va Operatorga imzolangan dalolatnoma taqdim etmasa, Ishtirokchiga Sovrin berilmaydi va bunday Ishtirokchi tegishli Sovrinni olishdan bosh tortgan deb hisoblanadi.

8.4. Tashkilotchi/Operatorga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra o'z vaqtida berilmagan sovrinlar talab qilinmagan deb hisoblanadi. Talab qilinmagan Sovrinlar saqlanmaydi va Buyurtmachi tomonidan o'z xohishiga ko'ra foydalaniladi.

8.5. Sovrinlar quyidagi sabablarga ko'ra berilmaydi:

- G'olib maqomi Tashkilotchi tomonidan tasdiqlanmagan, Ishtirokchi ushbu Qoidalarni buzganligi sababli Aksiyada ishtirok etishdan chiqarib tashlangan.
- G'olib (sovrinni olishga da'vogar) sovrinni olishdan bosh tortdi.
- Ishtirokchining uyali telefon raqami va boshqa ma'lumotlar noto'g'ri bo'lganligi sababli, Operator G'olib aniqlangan kundan boshlab ketma-ket 2 (ikki) ish kuni ichida G'olib bilan bog'lana olmadi.
- G'olib Sovrinni olish uchun zarur bo'lgan va ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan harakatlarni bajaradi yoki bunday harakatni belgilangan muddatni buzgan holda amalga oshirdi.
- G'oliblar tomonidan noto'g'ri ko'rsatilgan ma'lumotlar tufayli qaytib kelgan Sovrinlar qayta yuborilmaydi.
- Tabiiy hodisalar, harbiy harakatlar, defolt, taqiqlovchi qonun hujjatlarining chiqarilishi va boshqa holatlar tufayli, operatorga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra yuzaga kelgan va unga sovrinlarni topshirish bo'yicha o'z vazifasini bajarishga imkon bermaydigan fors-major holatlari yuzaga kelgan taqdirda, Sovrinlar berilmaydi va ular almashtirilmaydi yoki pul kompensatsiyasi berilmaydi.

8.6. Sovrinlarning rangi, modeli va boshqa xususiyatlari Tashkilotchi/Operatorning xohishiga ko'ra belgilanadi va Ishtirokchilarning taxminlariga, shuningdek reklama materiallarida taqdim etilgan rasmlarga mos kelmasligi mumkin. Agar Sovrinlarni topshirish paytida Qoidalarda ko'rsatilgan xususiyatlarga ega mahsulotlar erkin sotuvda bo'lmasa, Operator Sovrinni xuddi shunday yoki o'xshash xususiyatlarga ega mahsulotlar bilan almashtirishga haqlidir.

Tashkilotchi/Operatorning Sovrinlar sifati bo'yicha majburiyatlari ularning ishlab chiqaruvchilari tomonidan taqdim etilgan kafolatlar bilan cheklangan. Sovrinlarning yaxlitligi va funksional yaroqliligi G'oliblar tomonidan bevosita qabul qilingan paytda tekshiriladi.

8.7. G'olib bilan aloqa Operatorning vakolatli vakili tomonidan +998 90 905 44 88 uyali telefon raqami va [darya.dinikeeva@n11.uz](mailto:darya.dinikeeva@n11.uz) elektron pochta orqali amalga oshiriladi

8.7.1. Operator ushbu moddaning 8.6-bandida ko'rsatilmagan boshqa aloqa ma'lumotlari bo'yicha G'olib bilan bog'lanmaydi;

8.7.2. Operator, Tashkilotchi, Buyurtmachi hech qachon elektron pochta xabarlarini, SMS-xabarlarini yubormaydi yoki bank hisob raqamlari, bank kartalari raqamlari/fotosuratlarini, Internet-banking foydalanuvchi nomi/paroli, SMS-xabarlar orqali olinadigan bir martalik kodlar, PIN-kodlar, shaxsiy hisob qaydnomalari va ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntlar parollari va boshqa maxfiy ma'lumotlarni so'rab qo'ng'iroq qilmaydi.

## 9 TARAFLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

### 9.1. Ishtirokchi quyidagi huquqlarga ega:

- ushbu Qoidalarda belgilangan shartlarga muvofiq Aksiyada ishtirok etish;
- ushbu Qoidalarga muvofiq Aksiya haqida ma'lumot olish;
- Aksiya Qoidalariga muvofiq Aksiyada cheksiz ko'p marta ishtirok etish;
- Aksiyani o'tkazish shartlariga rozi bo'lmagan taqdirda Aksiyada ishtirok etishdan bosh tortish;
- ushbu Qoidalar va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlar.

### 9.2. Aksiya ishtirokchilari quyidagi majburiyatlarga ega:

- Aksiya o'tkazilayotgan vaqtda uning Qoidalariga rioya qilish;
- ushbu Qoidalar va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar.

### 9.3. Tashkilotchi quyidagi huquqlarga ega:

- istalgan vaqtda Buyurtmachi bilan kelishilgan holda Aksiya o'tkazilishini bir tomonlama ravishda to'xtatish, o'zgartirish yoki vaqtincha to'xtatish, shu jumladan, agar biron sababga ko'ra ushbu Aksiyaning biron bir jihati rejalashtirilganidek amalga oshirilmasa, shu jumladan Aksiyaning bajarilishi, xavfsizligi, halolligi, yaxlitligi yoki to'g'ri bajarilishini buzadigan yoki ta'sir qiladigan Tashkilotchi/Operator tomonidan boshqarilmaydigan sabablar.
- Aksiya davomida Ishtirokchilarga ma'lumot yuborish;

9.4. **Tashkilotchi, Operator, Buyurtmachi** Aksiya Ishtirokchisining xatolarining oqibatlari, shu jumladan (boshqa narsalar qatorida) uning xarajatlari uchun javobgar bo'lmaydi.

9.5. Tashkilotchi, Operator, Buyurtmachi Aksiya ishtirokchilari bilan yozma muzokaralarga yoki boshqa aloqalarga kirmaslik huquqini o'zida qoldiradi, ushbu Qoidalar va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

### 9.6. Tashkilotchi, Operator, Buyurtmachi quyidagi majburiyatlarga ega:

- Aksiya o'tkazish uchun ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan barcha harakatlarni belgilangan muddatda bajarish.

## 10 AKSIYADA ISHTIROK ETISHDAN CHETLASHTIRISH

10.1. Quyidagi hollarda Ishtirokchi Aksiyada ishtirok etishdan chetlashtiriladi, shuningdek Aksiyaning istalgan bosqichida oldindan ogohlantirilmadan Sovrindan mahrum qilinadi:

- (a) Ishtirokchi ushbu Qoidalarining 3-bo'limida belgilangan talablarga javob bermasa;
- (b) Ishtirokchi 2 (ikki) kun ichida Operatorning qo'ng'irog'i va xabariga javob bermasa.
- (v) chat-botda ro'yxatdan o'tish paytida Ishtirokchi tomonidan uyali telefon raqami noto'g'ri ko'rsatilganligi sababli Operatorning xabarini yetkazish mumkin bo'lmasa;
- (g) Tashkilotchi/Operator Ishtirokchi Aksiyada ishtirok etish uchun noqonuniy vositalardan, shu jumladan cheklarni qalbakilashtirish vositalaridan foydalanishi haqida taxmin qilish uchun asosga ega bo'lsa;
- (d) Tashkilotchi/Operator Ishtirokchining firibgar xatti-harakatlarni amalga oshirishi, aldash, pora berish yoki moliyaviy firibgarlik, shu jumladan bir nechta ro'yxatdan o'tish bilan shug'ullanishi haqida shubha yoki taxmin qilish uchun asosga ega bo'lsa;
- (e) Aksiya Tashkilotchisi, Operatori yoki Buyurtmachisi Aksiya Ishtirokchisini tekshirishda ushbu Ishtirokchining Aksiya sovrinlarini olish uchun faoliyat turi bilan bog'liq bo'lgan yoki boshqa

sabablarga ko'ra o'z ustun mavqeidan foydalanishini taxmin qilish uchun asosga ega bo'lsa. Aksiya Tashkilotchisi, Operatori va Buyurtmachisi Aksiya Ishtirokchisi chetlashtirilgani haqida tushuntirish bermaslik huquqiga ega.

## **11 SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLAR**

11.1. Aksiya ishtirokchisining shaxsga doir ma'lumotlariga Operator, Tashkilotchi tomonidan Buyurtmachining topshirig'iga binoan chat-botda ro'yxatdan o'tkazilganda ishtirokchi tomonidan beriladigan shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishga rozilik asosida ishlov beriladi.

11.2. Ishtirokchi istalgan vaqtda Tashkilotchiga yozma ariza yoki corporate@vibe-agency.kz manziliga elektron pochta xabarini yuborish orqali shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishga roziligini qaytarib olishga haqlidir. Operator, Tashkilotchi tomonidan ma'lumotlarga ishlov berishni to'xtatish sanasidan kamida 30 kun oldin xabardor qilingan taqdirda roziligini qaytarib olishi mumkin.

11.3. Ishtirokchi 4.1-bandda ko'rsatilgan davrda shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishga roziligini qaytarib olgan taqdirda, Ishtirokchi sovrinli o'yinlarda ishtirok etish imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Ishtirokchi Operator tomonidan rozilikni qaytarib olgunga qadar Ishtirokchi olgan sovrinlar Ishtirokchida qoladi.

## **12 BOSHQA QOIDALAR**

12.1. Mazkur Aksiyaga oid barcha bahsli masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.

12.2. Aksiyada haqiqatda ishtirok etishi Ishtirokchining ushbu Qoidalar bilan tanishligini va roziligini anglatadi. Qoidalarga rozilik to'liq va pisandasizdir.

12.3. Aksiyaning barcha natijalari, shuningdek Operator, Tashkilotchi va Buyurtmachining qarorlari yakuniy hisoblanadi va shikoyat qilinishi mumkin emas.

12.4. Ushbu Qoidalarda nazarda tutilmagan hollarda yakuniy qaror Tashkilotchi tomonidan qabul qilinadi.

12.5. Aksiyada ishtirok etish, o'yinlar o'tkazish, Sovrinlarni topshirish va hokazolar bilan bog'liq har qanday savollar yuzaga kelganda, Ishtirokchi corporate@vibe-agency.kz elektron pochta manziliga xat yozib, Tashkilotchiga murojaat qilishi mumkin. Javob xati Tashkilotchi tomonidan Ishtirokchidan murojaat xati olingan kundan boshlab 10 (o'n) ish kuni ichida yuboriladi.

12.6. Ushbu Qoidalar Aksiyaning rasmiy hujjati hisoblanadi.

12.7. Tashkilotchi, Operator, Buyurtmachi Ishtirokchining Aksiyada ishtirok etishi munosabati bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlar, xarajatlar va boshqa sarflarni to'lamaydi yoki kompensatsiya qilmaydi.

12.8. Tashkilotchi, Operator, Buyurtmachi Aksiyada ishtirok etayotgan shaxslar bilan yozma muzokaralar yoki boshqa aloqalarga kirmaydi, ushbu Qoidalar va amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

12.9. Tashkilotchining Aksiyani o'tkazish bilan bog'liq barcha masalalar bo'yicha qarorlari yakuniy va qayta ko'rib chiqilmaydi.

## o'tkazish qoidalariga 1-Ilovasi

### Shaxsga doir ma'lumotlarga (shu jumladan biometrik shaxsga doir ma'lumotlarga) ishlov berishga ROZILIK

Men (keyingi o'rinlarda – G'olib/Sovrindor), \_\_\_\_\_,  
(keragining ostiga chizilsin) (famiyasi, ismi, otasining ismi)

turar joy manzili: \_\_\_\_\_,

quyidagilarga:

1. "NGROUP CA" mas'uliyati cheklangan jamiyati, manzil: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, To'rtariq ko'chasi, 3-5-uy, STIR 308522490
2. "Vibe Agency" mas'uliyati cheklangan jamiyati (keyingi o'rinlarda Tashkilotchi deb ataladi), manzil: Qozog'iston Respublikasi, Almati shahri, Buxar jirau bulvari 26/1, "Evolution" biznes markazi, BIN 231140002554, shaxsda doir ma'lumotlarimga quyidagi shartlar bilan ishlov berishga rozilik beraman: Tashkilotchi G'olib/Sovrindorning shaxsda doir ma'lumotlariga faqat "HANSA BILAN AJOYIB TAASSUROTLAR" Aksiyasini o'tkazish maqsadida ishlov beradi.

#### Tashkilotchiga ishlov berish uchun uzatiladigan shaxsga doir ma'lumotlar ro'yxati:

- Famiyasi, ismi, otasining ismi;
- aloqa (uy, uyali, ish joyi) telefon raqami;
- elektron pochta manzili
- yashash joyining manzili
- pasport ma'lumotlari
- STIR
- Fotosuratda va(yoki) videoda qayd etilgan cheklarning tasviri.

#### Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishning maqsadlari va usullari.

##### 1) Aksiya o'tkazish.

5.2. G'olib/Sovrindor Tashkilotchi va Operator tomonidan Aksiya o'tkazish maqsadida o'zining quyidagi shaxsga doir ma'lumotlarga: famiyasi, ismi, otasining ismi; aloqa (uy, uyali, ish joyi) telefon raqami, elektron pochta manzili, yashash joyi manzili, pasport ma'lumotlari (shu jumladan pasportning fotosurati/skanerlangan nusxasi), STIR, quyidagi usullar bilan ishlov berishga rozilik beradi: yig'ish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlash (yangilash, o'zgartirish), ulardan foydalanish, ularni egasizlantirish, bloklash, yo'q qilish. Shu jumladan G'olib o'zining shaxsga doir ma'lumotlariga (famiyasi, ismi, otasining ismi) Aksiya Buyurtmachisi "Hansa Markaziy Osiyo" mas'uliyati cheklangan jamiyati, Qozog'iston Respublikasi, Almati shahri, Bo'stondiq tumani, Abish Kekilbayuli ko'chasi, 34-uy, BIN 210640000599, Tashkilotchining o'z soliq agenti majburiyatlarini bajarishi to'g'risida xabardor qilish maqsadida uzatishga rozilik beradi.

2) **Aksiya natijalari to'g'risida noaniq shaxslar doirasini xabardor qilish.** G'olib/Sovrindor Aksiya Tashkilotchisi, Operatori va Buyurtmachisi tomonidan Aksiya natijalari to'g'risida noaniq shaxslar doirasini xabardor qilish maqsadida o'zining quyidagi shaxsga doir ma'lumotlarga: famiyasi, ismi, otasining ismi; quyidagi usullar bilan ishlov berishga rozilik beradi: yig'ish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlash (yangilash, o'zgartirish), ulardan foydalanish, shu jumladan Aksiya Veb-saytida, shuningdek boshqa har qanday ochiq manbalarda tarqatish, ularni egasizlantirish, bloklash, yo'q qilish.

Ushbu rozilik 5 (besh) yil davomida amal qiladi.

Ushbu rozilik istalgan vaqtda [corporate@vibe-agency.kz](mailto:corporate@vibe-agency.kz) manziliga xabarnoma yuborish orqali G'olib/Sovrindor tomonidan qaytarib olinishi mumkin.

" " 20 \_\_\_\_\_  
Imzo FIO

Men "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonun" qoidalari bilan tanishganimni, shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish sohasidagi huquq va majburiyatlar menga tushuntirilganligini tasdiqlayman.

" " 20 \_\_\_\_\_  
Imzo FIO